

MULOQOT PSIXOLOGIYASI.

**BOLALARNING MULOQOT JARAYONIGA TASHQI MUHITNING
TA'SIRINI O'RGANISH**

Nurmatova Maftuna Maxmudjon qizi

Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti:

Amaliy Psixologiya 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Dilafruz Normuminova Erkinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning dastlabki muloqot jarayonlariga atrofdagi insonlarning tashqi muhitning ta'siri, hamda bolaning ota-onasi va oila a'zolari bilan dastlabki muloqotga kirishish jarayonlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, muloqot, verbal, noverbal, ijtimoiylashuv.

Tabiatdan inson bolasi doimo atrof muhit bilan doimo aloqada bo'lishga insonlar bilan muloqot qilishga ijtimoiy hayotga kirishishga azal azaldan ehtiyoji borligini his qilib yashab kelmoqda. Bola ona qornida rivojlanib boshlashi bilan onaning sezgi azolari orqali atrof muhitni his qila boshlaydi. Bola tug'ilishi bilan dastlabki muloqot jarayonlari paydo bo'ladi. Bola qo'lga olinganda aloqa bog'lanadi, qayta qo'yilganda esa aloqa uziladi [5]. Onaning bolasi bilan dastlabki sodda muloqot jarayonlarini shular orqali ko'rishimiz mumkun. Mutaxassislar vaqtiga vaqtiga bilan ota-onalarining boshini silab qo'yishi, yoki yelkasiga qoqib qo'yishi bola bilan ota – ona o'rtasida u bilan bo'ladigan ishonchli muloqotni ta'minlab turuvchi vosita ekanligini etirof etishadi. Millatimiz tajriba azaldan ma'lum bo'lgan, keksa avlod vakillari bo'lgan otaxonlarimiz, ayniqsa buvijonlarimiz farzand bilan muloqotda albatta bu qoidaga amal qilishgan [6-10]. Bolaning muloqotga bo'lgan jarayoni o'z o'zidan rivojlanmaydi, bunda asosiy narsa o'yin faolyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Bola dastlab o'yinchoqlari yani predmetlarni nomini aytish orqali nutqi sekin asta rivojlna boshlaydi, agar o'sha vaqtida ota –ona farzandining oldida ko'makchi bo'lib unga so'zlarni aytishni o'rgatmasa, bolaga vaqt ajratishmasa bola nutqiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlanishdan tengdoshlaridan ortda qola boshlaydi. Asosan bolaning nutqi 7 yoshgacha rivojlanadi agar 7-yoshgacha bola muloqot jarayoniga kirishmasa u hech qachon gapira olmay qolishi mumkun. Dunyoda ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan so'z va iboralar borki uni faqat nutq orqaligina tushunish mumkun. (Rus psixolog olimi A.Pavlovning “ ikkinchi signallar tizimi” bo'yicha tadqiqotlarining asosiy mohiyati shundaki, predmetdan kelayotgan signal “birinchi signal” bo'lsa, so'z orqali o'sha predmetning obrazini tassavur qilish orqali “ikkinchi signal” yaratiladi. Bolaning ko'p savol berishi juda ham yaxshi jarayon hisoblanadi, sababi bola qancha qiziquvchan va sersavol bo'lsa uni artofdagi insonlar bilan muloqot qilishga kirishishi ham shuncha tez bo'ladi. Faylasuflardan biri “bolaning aqliy rivojlanishi savol berish va hayratdan boshlanadi”, degan ekan [12-15]. Lekin aynan shu jarayonda yana bir tarafni etibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bola beradigan savollariga aniq va to'g'ri javoblar olishi kerak. Bolaning savollariga javob beruvchi shaxslar yani ota-onasi yoki ko'pincha bog'chadagi tarbiyachilari ilmli va fikrlashi yaxshi bo'lgan salohiyatli kishilar bo'lishi kerak. Bola qanchalik savollarining javoblarini atrofdagi insonlardan to'liq ololsa, u dunyo qarashi fikrlashi keng bo'lgan shaxs sifatida voyaga yetadi. Bola ijtimoiylashuv jarayonida turli tasirlarni (shu jumladan tarbiyaviy tasirni) passiv holda qabul qilmaydi, balki, sekin- asta ijtimoiy tahsirning obektidan uning faol subektiga aylanib boradi. Bolalik davrida insonning o'zligi shakllanadi, o'zi haqidagi tasavvuriga poydevor qo'yiladi. Bola o'zida ehtiyojlar mavjudligi tufayli faollilik ko'rsatadi, tarbiyaviy jarayonda ushbu ehtiyojlarni hisobga olinishi bolada faollikni rivojlanishiga yordam beradi. Bordi-yu agar tarbiyachilar bolani jim o'tirishga savol bermaslikka majbur qilsalar, bunday bola ijtimoiy moslashuvga qobilyatsiz, nochor va passiv shaxsni shakillantrishga muvoffaq bo'ladilar. Bolaga bazida ota-onasi tarafidan erkinlik ham berib turilishi kerak. U o'z tengdoshlariga qo'shilib keta olishi ular bilan erkin muloqot qilishi, ularni yonida o'zini qulay his qilishi uchun ham, ularni bazan o'z holiga qo'yib berishlari kerak. Bola ulg'ayar ekan, maktabda unga singdirilayotgan baho mezonlari (jamiyatda qabul qilingan normalar, qoidalar) ko'chada o'rtoqlari bilan muomilada qabul qilingan baho me'zonlaridan farq qilsa, bu uning shaxsiyatida ichki ziddiyatlar paydo bo'lishiga olib keladi[17].

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Oilada bola bilan ota –ona o’rtasidagi munosabatlar muloqot jarayonlariga ham juda katta sezilarli tasir o’tkazadi. Ota-onal farzandi bilan to’g’ri muloqot qilishni yo’lga qo’yishlari kerak. 3 yoshli bolani tarbiya qilishga juda katta ahamyat berish zarur, sababi bu yoshda bolaning oilada asosiy “Menligi” o’zligi rivojlana boshlaydi.

Bunaqa paytda bolalar juda injiq qaysar bo’lib qoladilar. Ular hamma ishni o’zlari qilishga harakat qila boshlaydilar[18].

Bolalarning maktabgacha bo’lgan davrida o’yin faolyati ularning muloqot jarayonida asosiy ahamyat kasb etadi. Bolani o’ynatyotganda kattalar o’yinchoqlar tilidan gapirishlari ular bilan muloqot qilishlari kerak, ammo ular bolalar kabi tilini chuchuk qilib gapirishlari kerak emas. Sababi bu bolalarda nutqning yaxshi rivojlanmasligiga, nutqda defektlar paydo bo’lishiga olib keladi.

4 yoshli bolalarda kattalar bilan muloqotga kirishish ko’pchilik bilan suhbat qilish istagi paydo bo’la boshlaydi. Bunday paytda ular bog’chada ko’pincha do’stlari bilan o’yinchoqlar almashib o’ynashga o’yinlar tashkil qilishga moyil bo’ladilar. Bunday o’yinlar tashkil qilishganda kim o’yin tashkil qilgan bo’lsa o’sha bola, o’yin boshlig’i bo’lishga harakat qiladi. Shu sababli ham ichki nizolar paydo bo’ladi ular orasida[20].

O’yindan qoniqmagan bola esa “ men o’ynamayman sen bilan”-deb noroziligini bildiradi. Kichik va o’rta maktab yoshidagi bolalarni asosan muloqotini rivojlanishida so’z boyligini oshirishda asosiy o’rin egallaydigan narsalar bu she’r yodlash qo’shiq kuylash yani shunaqa o’quv mashg’ulotlari orqali ularning nutqi kengayadi rivojlanadi ba so’z boyligi ortib boradi.

Psixologiyada “7 yosh inqirozi” –deb yuritiladigan inqiroz mavjuddir.

Bu davrda bolaning o’z “men”ligini tengdoshlari orasida tasdiqlashi bilan bog’liq. Bundan tashqari bolaning bilish jarayonlarida (sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat) sifat o’zgarishlari sodir bo’ladi. Boladagi bo’linuvchan beqaror diqqat o’rniga barqaror diqqat shakllana boshlaydi, xotirasi mustahkamlanad, taffakur jarayonlari rivojlanadi. Gohida 6 yoshli bolada mana shu sifat o’zgarishlari yuz bermaganligi tufayli ularni maktabga qabul qilish jarayonida “maktabga tayyor emas”, degan xulosa chiqarish mumkun bo’ladi[20-24]. Bola maktabga chiqanida ham bazilari

sergap bazilari jim yuradigan har hil fel atvorga ega bo'lган bolalar bo'lib chiqishadi, shu paytda pedagog psixologik xususiyatlarini ishga solib ular bilan to'g'ri muloqot qilib dars jarayonlarini olib borishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda ota-onada bog'chadagi tarbiyachilar, pedagoglar bolaning muloqot jarayonlarini o'rghanishga, nutqini rivojlantirishga, muloqot madanyatini o'zlashtirishga, so'z boyligini orttirishiga yordam berishlari bolaning muloqot jarayoni uchun judayam katta ahamyatga ega hisoblanadi.

REFERENCES

1. G'oziyev E.Psixologiya :(yosh davrlar psixologiyasi). Pedagogik institutlar va universitetlarning talabalari uchun o'quv qo'llanma.-T O'qituvchi, 1994.-224 b.
2. [5] Хатамова Д.А (2010) проблемы идентификации и эквивалентности литературоведческих терминов
3. [6] Khatamova Д.А (2019) sphere of reception of the term “ artistic image” A young scientist. Kazan, 45, 283.
4. [10] Хатамова Д.А “ ХУДОЖЕСТВЕННИЙ ОБРАЗ” молодой ученый (45) 386-389
5. [12] Журчеваб Т. В(2011) “ Утиной охоты до кислорода и пластилина”.
6. [17] Akhmedova, M.M (2021). The transformation of Russian prose of the centuary. Science and education, 2(4) 527-532
7. [20] Pulatova, U,R.,& Ahmedova, M.M. The originality of the heroes in Russian literature of the century. EPRA international journal of research and development(IJRD) SJIFImpact factor, 6, 264-268